

## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARNI GIGIENIK TAHLILI

*Soatov Mirmuhsin Maxmatmurot o'g'li*  
*mirmuhsinsoatov@gmail.com*  
*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*  
*Gigiyena kafedراسi assistenti*  
*Abdurahmonova Marjona Shavkat qizi*  
*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*  
*Tibbiy profilaktika yo'nalishi talabasi*

### ANNOTATSIYA

O'suvchi organizmning o'sish va rivojlanishi asosan ularning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari bilan baholanishi qator ilmiy ishlarda isbotlangan. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari nafaqat ularning salomatlik holatini gormoniklik darajada rivojlanishini baholovchi integral ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim muassasasi, jismoniy rivojlanish, maktabgacha ta'lim, somatometrik ko'rsatkich.

### KIRISH

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari nafaqat ularning salomatlik holatini hamda gormoniklik jihatidan ham rivojlanishini baholovchi integral ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib Bolalar va o'smirlar gigiyenasi o'sib borayotgan yosh organizmni har tomonlama aqlan, jismonan, ruhan rivojlanishini nazorat qilish va gigiyenik jihatdan qo'llab - quvvatlashi dolzarb vazifalardan biridir.

### MATERIAL VA USULLAR

Kuzatish ob'ektlari bo'lib, ta'lim-tarbiyaning birinchi bosqichi amalga oshiriladigan maktabgacha ta'lim muassasalari, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kun tartibi va uning asosiy tarkibiy qismlari, maktabgacha ta'lim muassasalarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarni tashkillashtirilishi va o'tish o'rinlari tekshirish materiallari olindi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar jismoniy rivojlanish (L.M.Basharova, 2014) maxsus standartlar asosida o'rganildi va tahlil qilindi. Bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi dars boshida va dars oxirida Martin-Kushalevskiy sinamasi yordamida aniqlandi.

### NATIJALAR VA MUNOZARALAR

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning samatometrik ko'rsatkichlari (bo'y) ning gigiyenik tahlili 1 - 2 jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**Maktabgacha ta’lim yoshidagi o’g’il bolalarning samatometrik (bo’y uzunligi) ko’rsatkichlari (Toshkent shahri misolida)**

№	Bolalarning yoshi	Bo’yi	
		Fiziologik me’yoriy daraja	Bolalarning bo’y ko’rsatkichi
1	3	93.55	93.12±0.5
2	3 yosh 6 oy	98.05	97.25±0.4
3	4	101.76	100.94±0.8
4	4 yosh 6 oy	104.43	103.55±0.7
5	5	109.61	108.83±0.6
6	5 yosh 6 oy	111.71	111.56±0.3
7	6	114.62	113.93±0.8

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning tana uzunligi jinslar kesimida alohida o’rganilmaydi, chunki ularning jinsiy farqlari 7 yoshdan keyin tahlili qilinadi. Biz tadqiqotlarimizda ular orasidagi farqlarni bilish uchun alohida tartibda o’rganishni maqsad qilib oldik.

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, bolalarning bo’y uzunligining ko’rsatkichlari fiziologik me’yoriy darajadan sezilarsiz darajada past ekanligi aniqlandi, ya’ni 3 yoshlilar guruxida 0,5% ga, ya’ni 0,43 sm, shuningdek 3 yoshu olti oylillar guruxida esa 0.9% ga, 4 yoshlilar guruxida esa 0,2 %ga, tayyorlov guruxida esa 0,7% ga kam ekanligi aniqlandi. Tayyorlov guruxidagi bolalarning bo’y ko’rsatkichlari 0,69 sm ga kam ekanligi aniqlandi. O’g’il bolalarning bo’y ko’rsatkichi me’yoriy standart ko’rsatkichdan 0,43 smdan 0,88 smgacha past ekanligi aniqlandi.

**2-jadval**

**Maktabgacha ta’lim yoshidagi qiz bolalarning samatometrik (bo’y uzunligi) ko’rsatkichlari. (Toshkent shahri misolida).**

№	Bolalarning yoshi	Bo’yi	
		Fiziologik me’yoriy daraja	Bolalarning bo’y ko’rsatkichi
1	3	92.87	92.49±0.04
2	3 yosh 6 oy	97.14	97.08±0.08
3	4	101.07	100.66±0.07
4	4 yosh 6 oy	103.62	103.17±0.06
5	5	108.18	107.65±0.03
6	5 yosh 6 oy	110.70	109.89±0.04
7	6	113.65	112.94±0.04

Maktabgacha ta’lim yoshidagi qiz bolalarda ham bo’y uzunligining ko’rsatkichlari fiziologik me’yoriy darajadan sezilarsiz darajada past ekanligi aniqlandi. Bu ko’rsatkich 5 yoshu 6 oyliklar guruxida 99,26%ni, ya’ni 0,81 smga kam

ekanligi aniqlandi. Qolgan yosh guruxlarida esa 0,1% dan 0,5 % gacha kam bo‘lib, bu esa 0,06 smdan 0,38 smgachani me’riy darajadan kam ekanligini ko‘rsatdi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning samatometrik ko‘rsatkichlari (tana vazni) ning gigienik tahlili 3 – 4 jadvalda keltirilgan.

**3-jadval**

**Maktabgacha ta’lim yoshidagi o‘g‘il bolalar tana vazni natijalari (Toshkent shahri misolida)**

№	Bolalarning yoshi	Tana vazni	
		Fiziologik me’yoriy daraja	Bolalarning vazn ko‘rsatkichi
1	3	14.69	14.43±0.01
2	3 yosh 6 oy	15.66	15.53±0.02
3	4	16.36	15.99±0.04
4	4 yosh 6 oy	17.43	17.38±0.05
5	5	18.48	18.24±0.08
6	5 yosh 6 oy	19.45	19.27±0.06
7	6	20.74	20.56±0.08

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning tana vazni ularning integral ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, o‘svuchi organizmning bo‘yi va qo‘krak qafasi aylanasiga mos kelishi zarur. Bu esa ularning gormonik tarzdagi jismoniy rivojlanishini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi o‘g‘il bolalarning tana vazni ko‘rsatkichlarining gigienik tahlili shuni ko‘rsatadiki, 3 yoshli o‘g‘il bolalarda vazn ko‘rsatkichi me’yoriy darajadan 1,8%ga, ya’ni 0,26 kgga kam ekanligi aniqlandi. Tekshirilgan 6 ta yosh guruxida vazning me’yoriy darajadan kamligi 0,3%dan 1,8 %ga kam ekanligi aniqlandi.

**4-jadval**

**Maktabgacha ta’lim yoshidagi qiz bolalar tana vazni natijalari (Toshkent shahri misolida)**

№	Bolalarning yoshi	Tana vazni	
		Fiziologik me’yoriy daraja	vazni ko‘rsatkichi
1	3	14.27	13.99±0.02
2	3 yosh 6 oy	14.88	14.64±0.01
3	4	16.22	16.01±0.005
4	4 yosh 6 oy	16.79	16.69±0.03
5	5	18.20	17.99±0.04
6	5 yosh 6 oy	19.20	18.98±0.02
7	6	20.06	19.79±0.03

4-javdaldan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta’lim yoshidagi qiz bolalarda o‘g‘il bolalarning ko‘rsatkichlari past ekanligi qator ilmiy tadqiqot ishlarniing natijalarida isbotlangan.

Bizning tadqiqot natijalarimiz shuni ko‘rsatadiki, vazn ko‘rsatkichlari 3 yoshlilar guruhida o‘g‘il bolalarga nisbatan qizlarda 0,2% ga kam ekanligi aniqlanadi. O‘g‘il bolalarda me‘yoriy darajaga nisbatan 0,6% dan 2,0% gacha kam ekanligi aniqlangan. Qizlarning vazni ko‘rsatkichi esa me‘yoriy darajadan 0,1 dan 0,27 kggacha kam ekanligi aniqlandi. Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning kunlik ratsionini tarkibini va enegetik qiymatini me‘yoriy darajaga keltirish zarur.

Nazorat ostiga olingan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ko‘krak qafasi aylanasi o‘lchamlarining natijalari 5 – 6 jadvallarda keltirilgan.

5-jadval

**Maktabgacha ta‘lim yoshidagi o‘g‘il bolalarning samatometrik ko‘rsatkichlari (Toshkent shahri misolida).**

№	Bolalarning yoshi	Ko‘krak qafasi aylanasi	
		Fiziologik me‘yoriy daraja	ko‘krak qafasi aylanasi
1	3	50,34	49,43±0.6
2	3 yosh 6 oy	52,77	51,58±0.4
3	4	53,62	53,19±0.3
4	4 yosh 6 oy	54,62	54,25±0.4
5	5	55,09	54,94±0.8
6	5 yosh 6 oy	56,68	56,17±0.9
7	6	57,32	57,26±0.4

6-jadval

**Maktabgacha ta‘lim yoshidagi qiz bolalarning samatometrik ko‘rsatkichlari (Toshkent shahri misolida)**

№	Bolalarning yoshi	Ko‘krak qafasi aylanasi	
		Fiziologik me‘yoriy daraja	Bolalarning ko‘krak qafasi aylanasi, sm
1	3	49,54	49,14±0,2
2	3 yosh 6 oy	51,05	50,85±0,5
3	4	52,67	52,36±0,4
4	4 yosh 6 oy	53,16	52,94±0,3
5	5	53,84	53,43±0,5
6	5 yosh 6 oy	55,20	54,94±0,4
7	6	56,27	55,94±0,4

5-javdaldan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta‘lim yoshidagi o‘g‘il bolalarning ko‘krak qafasining aylanasi me‘yoriy darajaga nisbatan 98,1% dan 99,9% gacha, ya‘ni 0,06 smdan 1,9 smgacha kam ekanligi aniqlandi.

Ko‘krak qafasi aylanasining eng kam ko‘rsatkichi 3 yoshu 6 oyli bolalar guruxida aniqlandi. Guruxlar kesimida esa tayyorlov guruxida 0,06 smni tashkil etadi.

6-javdaldan keltirilgan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim yoshidagi qiz bolalarning ko'krak qafasining aylanasi me'yoriy darajaga nisbatan 0,4% dan 0,8% gacha, ya'ni 0,20% dan 0,41smgacha kam ekanligi aniqlandi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi qizlarning ko'krak qafasining aylanasi o'g'il bolalarda me'yoriy darajaga nisbatan qizlardan 1,9% ga kam ekanligi aniqlandi. Ko'krak qafasining aylanasi 6 yoshlilar guruhida esa o'g'il bolalarda qizlarga nisbatan 0,5% ga ortiqcha ekanligi aniqlandi.

### XULOSA

1.Nazorat ostiga olingan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar orasida bo'y uzunligi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar guruhida 0,43 smdan 0,88 smgacha, qizlarda esa 0,06 smdan 0,38 smgachani me'riy darajadan kam ekanligini ko'rsatdi.

2.Tekshirilgan bolalar orasida tana vazni 0,3% dan 1,8 % ga, qiz bolalarda esa 0,6% dan 2,0% gacha kamligi aniqlandi.

3. Ko'krak qafasining aylanasi esa 98,1% dan 99,9% gacha, ya'ni 0,06 smdan 1,9 smgacha, qizlarda esa 0,20% dan 0,41smgacha kam kamligi aniqlandi.

### ADABIYOTLAR

1. Болалар ва ўсмирлар гигиенаси. Г.И.Шайхова таҳрири остида. Тошкент, 2011. 345 С.
2. Баранов, А. А. Состояние здоровья современных детей и подростков и роль медико-социальных факторов в его формировании. Текст. /А.А. Баранов, В.Р. Кучма, Л.М. Сухарева // Вестник РАМН 2009.-№5. - С.6-11.
3. Башарова Л.М. Физическое развитие детей как основа оптимизации условий их воспитания в дошкольных санаторных учреждениях. //Материалы научно-практическая конференция с международным участием. /Гигиенические аспекты охраны окружающей среды, укрепление здоровья и благополучие населения-приоритетные направления здравоохранения Узбекистана. Ташкент, 2014. С.153-155.
4. Лисицын Ю.П. Актуальные проблемы профилактики ноинфекционных заболеваний. //Тез.докл.науч.прак.конфр. Междун. участием. М. 1997.С.139-140.
5. Soatov Mirmuhsin Maxmatmurot o'g'li, and Soatov Mirmuhsin Maxmatmurot o'g'li. “UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILAR OVQATLANISHINI GIGIYENIK TASHKILLASHTIRISH”. *PEDAGOGS*, vol. 49, no. 1, Jan. 2024, pp. 41-46, <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/696>.
6. Туйчиевна, М. О. ., Махматмуротович, С. М. ., & Расуловна, Х. Б. . (2023). Основные Возрастные Заболевания И Состояния Распространенные Среди Мужчин И Женщин Пожилого Возраста. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(4), 14–25. Retrieved from <https://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/674>
7. Eshnazarovich T. B. et al. Hygiene Requirements for School Furniture. – 2023.
8. Tuxtarov B. E., Mirmuhsin Maxmatmurot O. G. 'Li Soatov, Mohira Zayniddin Qizi Saydaliyeva UMUMTA'LIM MAKTABLARI VA MAKTABGACHA TA'LIM

MUASSASALARILARDA BOLALAR VA O'SMIRLAR GIGIYENASINING TUTGAN O'RNI //Scientific progress.–2023. – 2023. – T. 2.

9. Soatov , M. M. o'g'li, & Elmurodova , L. X. qizi. (2023). SUVNI KOAGULYATSIYA QILISHNING GIGIYENIK AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(30), 67–71. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/5194>

10. Соатов Мирмухсин Махматмуротович, & Абдурахмонова Маржона Шавкат кизи. (2024). ЗДОРОВОЕ ПИТАНИЕ – ЗАЛОГ ЗДОРОВЬЯ. *PEDAGOGS*, 53(1), 64–67. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/899>

11. Абдурахмонова Маржона Шавкатовна, & Соатов М.М. (2024). ПРАВИЛЬНОЕ ПИТАНИЕ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ. *PEDAGOGS*, 53(1), 68–71. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/900>

12. Soatov Mirmuhsin Maxmatmurot o'g'li, & Soatov Mirmuhsin Maxmatmurot o'g'li. (2024). UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILAR OVQATLANISHINI GIGIYENIK TASHKILLASHTIRISH. *PEDAGOGS*, 49(1), 41–46. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/696>

13. Soatov , M. M. o'g'li, & Ramazonova , K. U. qizi. (2024). МАКТАБГАЧА ТА'LIM MUASSASALARIDA BOLALARNING OVQATLANISHINI GIGIYENIK BAHOLASH. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 281–290. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/5952>

14. Абдурахмонова Маржона Шавкатовна, & Соатов М.М. (2024). САНИТАРНАЯ ЭКСПЕРТИЗА КОЛБАСНЫХ ИЗДЕЛИЙ. *PEDAGOGS*, 53(1), 72–74. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/901>